



**YOSHLAR ORASIDA KITOBXONLIKNI TARG'IB QILISH YO'LLARI:
MUAMMOLAR VA SAMARALI YECHIMLAR**

Turgunova Buxalicha

Andijon davlat chet tillari instituti

“Ingliz tili va adabiyoti ” kafedra asissenti

buxalicha1993@gmail.com

Azambek Abdumutalibov

Andijon davlat chet tillari instituti

“Ingliz tili va adabiyoti ” fakulteti 2- bosqich 214 -guruh talabasi

abdumutalibovazambek@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatining hozirgi holati tahlil qilinadi, muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Kitobga qiziqishni oshirishda ta'lim muassasalari, ijtimoiy tarmoqlar, innovatsion loyihalar – xususan, 'Pro Readers' loyihasining ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: kitobxonlik, yoshlar, motivatsiya, ta'lim, ijtimoiy tarmoqlar, Pro Readers

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается современное состояние культуры чтения среди молодежи, анализируются проблемы и предлагаются пути их решения. Особое внимание уделено роли образовательных учреждений, социальных сетей и инновационных проектов, в частности проекта 'Pro Readers'.

Ключевые слова: чтение, молодежь, мотивация, образование, социальные сети, Pro Readers



KIRISH

Kitob – bu inson tafakkurining kaliti, ma’naviyat ko‘zgusi va jamiyat taraqqiyotining asosi. Bugungi globallashuv davrida raqamli texnologiyalar hayotimizga chuqur kirib kelgani bois, kitobxonlik madaniyati muhim e’tibor talab qilmoqda. Maqolada aynan yoshlar orasida kitobga qiziqishni uyg‘otish, ularni ma’naviy jihatdan boyitish borasidagi samarali yo‘llar ko‘rib chiqiladi. 'Pro Readers' loyihasi ham ushbu yo‘nalishda innovatsion yondashuv sifatida taqdim etiladi.

Bugungi kunda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish borasida ko‘plab ilmiy maqolalar, davlat qarorlari va ijtimoiy tashabbuslar mavjud. Avloniy (1913) o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida ta’lim va tarbiyada o‘qishning o‘rnini yuksak baholagan. Biroq, zamonaviy raqamli muhitda bu qadriyatlar xavf ostida qolmoqda. Zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning keskin rivojlanishi tufayli, nafaqat talabalar, balki umumiy yoshlar qatlamining asosiy vaqti internet tarmoqlarida o‘tmoqda. TikTok, Instagram, YouTube kabi platformalarning ko‘ngilochar xarakteri o‘quvchi ongini chalg‘itmoqda, bu esa kitob o‘qishga bo‘lgan e’tiborni kamaytirayotgan asosiy omillardan biri sifatida ko‘rilmoqda. UNESCO (2023) hisobotida qayd etilishicha, ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda yoshlarning kitob o‘qishga ajratayotgan vaqti 10 yil oldingi ko‘rsatkichlarga nisbatan 40–50 foizga kamaygan. O‘zbekiston bo‘yicha ham Kitobxonlik markazi (2024) olib borgan so‘rovnoma asosida, yoshlarning 60 foizi o‘qishga emas, internetda video ko‘rish yoki ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazishga ustunlik berayotganini bildirgan. Shunday sharoitda kitobxonlikni rag‘batlantirishning innovatsion, yoshlar didiga mos va interaktiv shakllari zarur bo‘lmoqda. Shu bois maqola davomida ana shunday samarali loyihalardan biri – “Pro Readers” loyihasining tahlili ham keltiriladi.

Zamonaviy yoshlarning asosiy vaqtini ijtimoiy tarmoqlarga sarflashi global miqyosda tashvish uyg‘otmoqda. TikTok, Instagram va YouTube singari platformalar ko‘ngilochar kontent orqali ongni “band” qilib, vaqtni behuda sarflashni odatga aylantiradi. Bu holat bir necha haftadan so‘ng ruhiy ehtiyoj darajasiga chiqib, giyohvandlikka o‘xshash ta’sir ko‘rsatadi.

Shu muammoga qarshi kurashish, yoshlarni raqamli hayotdan bir muddat bo‘lsa-da uzib, ongli, samarali va sog‘lom o‘qish muhitini yaratish maqsadida “Pro Readers”



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

loyihasi yo‘lga qo‘yildi. Mazkur loyiha 2020-yildan boshlab ijtimoiy asosda faoliyat olib bormoqda va o‘tgan yillar davomida yuzlab yoshlarda kitob o‘qishga bo‘lgan muhabbat uyg‘otishga xizmat qilgan.

Loyihaning asosiy g‘oyasi: ertalab soat 5:00 da uyg‘onish, raqamli salomatlik nazoratini yuritish va kitob o‘qishga vaqt ajratish. Har bir ishtirokchi kundalik faoliyatini skrinshotlar orqali tasdiqlab boradi: ayniqsa telefondagi “digital wellbeing” yoki “screen time” ilovalari orqali har kuni qancha vaqtni qayerda sarflaganini ko‘rsatish majburiydir. Shu tariqa ishtirokchilarda mas’uliyat va vaqtni boshqarish ko‘nikmalari shakllanadi.

Bundan tashqari, loyiha doirasida mavjud kitoblar bepul tarqatiladi yoki aylana usulida o‘zaro almashiladi. Ishtirokchilar o‘zlaridagi kitobni ham loyihaga olib kelib, boshqalarga o‘qishga berish orqali “kitob almashuv” madaniyatini targ‘ib qiladilar. Bu esa jamiyatda ijtimoiy aloqalarni mustahkamlab, kitob atrofida uyg‘oq va faol guruhlarining shakllanishiga sabab bo‘lmoqda.

“Pro Readers” nafaqat kitobxonlikni, balki sog‘lom hayot tarzi, mas’uliyat, vaqtdan oqilona foydalanish, shaxsiy intizom singari ko‘nikmalarni ham yoshlar ongiga singdirishni maqsad qilgan.

Ushbu maqolada taqdim etilgan tahliliy ma’lumotlar “Pro Readers” loyihasi faoliyatiga asoslangan bo‘lib, tadqiqot jarayoni kuzatuv, suhbat va so‘rovnoma usullari orqali amalga oshirildi. Loyiha asosan 17–25 yosh oralig‘idagi talabalar va ulardan katta yoshdagi kitobxonlarni qamrab olgan. Ishtirokchilar ixtiyoriy ravishda loyihaga qo‘shiladi va ular uchun kitob o‘qishga bo‘lgan munosabat, motivatsiya va ongli vaqt boshqaruvi kabi jihatlar bo‘yicha doimiy monitoring olib boriladi.

Har bir qatnashuvchining o‘qigan oxirgi kitobi yuzasidan qisqa og‘zaki suhbat o‘tkaziladi. Bu suhbatda ishtirokchining kitobdan olgan asosiy xulosasi tinglanadi. Agar u kitob mazmunini tushungan va undan ijobiy ta’sir olgan bo‘lsa, undan keyingi bosqichda u kitobni 10 daqiqadan ortiq bo‘lmagan vaqt davomida qisqacha sharhlab beradi. Bu usul orqali yoshlar o‘z fikrini ifoda etish, asosiy g‘oyani ajratib olish va o‘zlashtirilgan bilimni tarqatish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Loyiha doirasida aniq muddatli sikllar belgilanmagan bo‘lsa-da, yangi qo‘shilgan ishtirokchilar uchun 1 haftalik, 2 haftalik yoki 3 haftalik kitob o‘qish



challenge'lari tashkil qilinadi. Bu bosqichma-bosqich usul ularning kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini mustahkamlaydi va asta-sekin o'qish odatini shakllantiradi.

Oyning yakunida esa eng faol va natijasi ijobiy bo'lgan ishtirokchiga kitob sovg'a qilinadi. Bu mukofotlov mexanizmi yoshlarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va ularda o'z ustida ishlashga bo'lgan intilishni oshiradi.

“Pro Readers” loyihasining asosiy maqsadi – yoshlar kuniga kamida 5 bet bo'lsa ham doimiy ravishda kitob o'qish odatini shakllantirishdir. Bu oddiy, ammo izchil yondashuv orqali har bir ishtirokchining o'z vaqtini samarali boshqarishi, fikrlash doirasini kengaytirishi va ma'naviy o'sishga erishishi kuzatildi.

Tadqiqot davomida o'quvchilar orasida o'tkazilgan suhbatlar va kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, ko'plab ishtirokchilar ijtimoiy tarmoqlarda sarflanayotgan vaqtni sezilarli darajada qisqartira boshlagan. Masalan, bir ishtirokchi avvallari kuniga 5–6 soat vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazganini bildirgan bo'lsa, hozir bu ko'rsatkich 2–3 soatgacha qisqargan va tejalgan vaqt kitob o'qishga sarflanmoqda. Bu esa vaqtni ongli boshqarish va foydali mashg'ulotlarga yo'naltirishdagi ijobiy o'zgarishdir.

Loyihamizda qatnashgan ayrim yoshlar yil davomida 100 taga yaqin kitob o'qishga muvaffaq bo'lgan. Ishtirokchilar har oyda nechta kitob o'qigani, ularning umumiy sahifa soni, va o'rtacha kunlik kitob o'qish ko'rsatkichlarini loyiha guruhiga hisobot tarzida taqdim etadi. Ushbu yondashuv nafaqat o'z-o'zini baholash, balki o'z ustida ishlashni tizimli qilishda ham muhim rol o'ynaydi.

Masalan, bir ishtirokchi 24 kun davomida 11 ta kitob o'qigan, yana biri esa 3,5 oyda 36 ta kitobni tugatgan. O'rtacha hisobda inson bir soatda 20–50 betgacha kitob o'qishi mumkin. Shu asosda “Pro Readers” har bir ishtirokchiga mos individual o'qish rejasi tuzadi. Misol uchun, agar bir ishtirokchi 1 soatda 30 bet kitob o'qiy olsa va u 300 betli kitobni o'qishni xohlasa, unga kuniga 2 soat vaqt ajratish orqali 5 kun ichida ushbu kitobni tugatish rejalashtiriladi. Bu yondashuv o'quvchiga aniq maqsad, aniqlik va natija beradi.

Umuman olganda, loyiha orqali yoshlar o'z hayotiga intizom va izchillik olib kirmoqda. Ular vaqtni qadriga yetishni, ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanishni va kitobni doimiy hayotiy ehtiyoj sifatida qabul qilishni o'rganyapti. Bu esa “Pro



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

Readers” loyihasining ma’naviy va intellektual yutuqlar yo‘lidagi muvaffaqiyatli qadami sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, kitobxonlikni targ‘ib qilishda har bir yoshning individual qiziqishlari va vaqt resurslaridan kelib chiqqan holda yondashish zarur. “Pro Readers” loyihasi bu borada samarali model bo‘lib, o‘quvchilar orasida kitobga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va intellektual rivojlanishga xizmat qilmoqda. Kelajakda ushbu loyiha doirasida yana kengroq miqyosdagi o‘quv dasturlarini amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlarga oid nutqlari.
3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yoshlar ongiga ta'siri. Ilmiy maqolalar to‘plami. T., 2021.
4. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. T., 2022.
5. Avloniy, A. (1913). Turkiy Guliston yoxud axloq.